

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

GAFUROV ALISHER DJAXANGIROVICH

**PAXTA CHIQINDILARIDAN TOLALI CHIGITLARNI AJRATIB OLISH
JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Gafurov Alisher Djaxangirovich

Пахта chiqindilaridan tolali chigitlarni ajratib olish jarayonini
takomilashtirish 3

Гафуров Алишер Джахангирович

Совершенствование процесса отделения летучек из хлопковых
отходов..... 23

Gafurov Alisher Djaxangirovich

Improving the process of separating volatiles from cotton
waste..... 45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 48

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.T.08.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

GAFUROV ALISHER DJAXANGIROVICH

**PAXTA CHIQINDILARIDAN TOLALI CHIGITLARNI AJRATIB OLISH
JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiyaa komissiyasida B2024.4.PHD/T5117 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezюме)) Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.ttesi.uz) va "Zionet" Axborot-ta'lim portalida (www.Zionet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuychiyev Timur Ortigovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy oponentlar:

Avazov Komil Raxmatovich,
texnika fanlari doktori, professor;

Abbazov Ilxom Zopirovich,
texnika fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

M.T. O'rozboyev nomidagi Mehanika va inshootlar seysmik mustabkamligi instituti.

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSs.03/30.12.2019.T.08.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil 9-aprel kuni soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjahon ko'chasi 5-uy, Tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08, faks: (+99871)253-36-17, e-mail: titlp_info@edu.uz, Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ma'muriy binosi, 2-qavat, 222-xona).

Dissertatsiya ishi bilan Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (226-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100100, Toshkent sh., Yakkasaroy tumani, Shohjahon ko'chasi 5-uy, tel.: (+99871) 253-06-06, 253-08-08.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil 24 - mart kuni tarqatildi.
(2025-yil 24-martdagi 226-raqamli ilmiy kengashning himoyasi)



X.X.Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z.Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Sh.Sh.Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda to‘qimachilik sanoatida foydalaniladigan tola miqdorining asosiy qismi 57÷62 foizini paxta tolasini tashkil etmoqda. «Dunyo miqyosida 24 mln. tonna paxta tolasini ishlab chiqarilishini hisobga olsak»¹, paxta tolasini tarkibidagi ifloslik va nuqsonlarni samarali, energiya va resurstejamkor tozalash mashinalarini amaliyotga joriy etishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan jahon paxta-to‘qimachilik sanoatida yuqori samaradorlikka ega bo‘lgan paxta tozalash uskunalari va regeneratorlarini takomillashtirish hamda resurstejamkor texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda paxta xomashyosini dastlabki ishlashning texnika va texnologiyasini takomillashtirish, ilg‘or texnika va texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali va oqilona foydalanishni oshirish, jahon paxta-to‘qimachilik bozorida raqobatbardosh qo‘shimcha qiymatli yarim tayyor va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Ushbu yo‘nalishda, jumladan, paxtani tozalash jarayonida ajralib chiqqan iflosliklar tarkibidagi paxta bo‘lakchalarini regeneratsiyalash va regeneratsiyalangan paxtani qayta ishlash texnologiyasini yaxshilash bo‘yicha tadqiqotlar ustivor hisoblanmoqda. Bu borada, paxtani iflos aralashmalardan tozalashning samarali texnologiyasi va regeneratorlarning resurstejamkor konstruksiyalarini yaratish, paxtani regeneratsiyalash jarayonida tozalash qaytaligini, ishlash rejimlarini optimallashtirishga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda paxta-to‘qimachilik klasterlarini rivojlantirish, paxta tozalash korxonalarini texnik qayta jihozlash va modernizatsiyalash, xomashyoni dastlabki ishlashning rentabelligini, shu bilan birga, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilib, ijobiy natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, «...Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta‘minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish maqsad qilinishi, bunda to‘qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga ko‘paytirish...» bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan². Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, paxtani yirik iflos aralashmalardan tozalash uskunalari ajralib chiqayotgan chiqindi tarkibidagi paxta bo‘lakchalarini regeneratsiyalashning samarali texnologiyasini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi, 2021 yil 16 noyabrdagi PF-14-son «Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2023 yil 10 yanvardagi PF-2-son «Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini tubdan isloh qilish hamda sohaning eksport salohiyatini

¹ <https://www.icac.org> «International cotton advisory committee» veb-saytidagi hisoboti.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni

yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 22 iyundagi 397-son «Paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishidagi tadqiqotlar ma'lum darajada xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Paxtani tozalash uskunalari va iflosliklarga qo'shib ketgan paxtani regeneratsiyalash uskunalarini takomillashtirish bo'yicha bir qator chet el olimlari W.S.Anthony, Wang Hua, X.Zhang, J.D. Wanjura, W.B. Faulkner, G.A. Holt, M.G. Pelletier, M.N. Gillum, C.B. Armijo va boshqalar ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Paxtani iflos aralashmalardan tozalash, iflosliklarga qo'shib ketgan paxtani regeneratsiyalash texnika va texnologiyasi, asosiy ishchi qismlarning ko'rsatkichlari va ishlash rejimlari takomillashtirish bo'yicha bir qator olimlar, shu jumladan S.D.Boltabayev, G.I.Miroshnichenko, G.D.Djabbarov, R.Z.Burnashev, G.I.Boldinskiy, R.V.Korabelnikov, I.K.Xafizov, A.Parpiyev, A.YE.Lugachev, A.Djurayev, Y.S.Sosnovskiy, I.D.Madumarov, P.N.Borodin, SH.SH.Xakimov, X.S.Usmonov va boshqalar bu soha rivojiga munosib hissa qo'shdilar.

Lekin, xorijiy va maxalliy paxta tozalash korxonalarida foydalanilayotgan paxta regeneratrlarining tahlili ularning ishchi qismlari samaradorliklarini oshirish muammosini o'zining optimal yechimini topmaganligini ko'rsatdi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. "Energetika, energiya va resurstejamkorlik" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining ITD-3-136 "Resurstejamkor boshqariladigan tolali materiallarni tozalash texnologiyasi va qurilmasini yaratish" (2012-2014) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tozalagichlarda ajratilgan iflosliklar tarkibidan paxta bo'lakchalarini regeneratsiyalash jarayonini takomillashtirib, xomashyo yo'qolishini kamaytirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

- mahalliy va xorijiy paxta regeneratrlarini ishlash jarayonlarini tahlil etish;
- arrachali baraban tishlaridan ajratib olingan bir chigitli paxta bo'lakchalarini harakat trayektoriyalarini nazariy tadqiqoti;
- ajratib olingan paxta bo'lakchalarini qaytadan arrachali barabanga uzatib beruvchi cho'tkali baraban va yo'naltirgich joylashishini nazariy tadqiq etish;
- takomillashtirilgan mexanik usulda ishlovchi, ko'p marotaba tozalash imkoniyati mavjud paxta regeneratrlarini ishlab chiqish va tajriba sinovlarini o'tkazish;
- ishlab chiqilgan paxta regeneratrlarini ishlab chiqarishga tadbir etishda olinadigan iqtisodiy samaradorlik hisobi.

Tadqiqotning obykti sifatida paxtani iflos aralashmalar tarkibidan ajratib oluvchi regeneratrlari va tozalash texnologiyasi olingan.

Tadqiqotning predmeti paxtani iflosliklar tarkibidan regeneratsiyalash jarayoni.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonida paxtani regeneratsiyalash, paxtani dastlabki ishlash texnologik bosqichlarida paxta tolasining sifat ko'rsatkichlarini HVI tizimida aniqlash, zarba nazariyasi, tajriba natijalarini matematik statistik qayta ishlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

iflosliklarga aralashgan paxtani regeneratorda besh martagacha tozalash imkoniyatini beruvchi cho'tkali baraban va yo'naltirgich o'rnatilgan takomillashtirilgan paxta regeneratori ishlab chiqilgan;

paxta bo'lagini yo'naltirgich sirtida ta'sirlashish zonasi maksimal bo'lishini hamda chiqish bo'yicha maksimal siljishi uchun paxta bo'lagini otilib chiqish burchagi qiymatlari aniqlangan;

regeneratorning cho'tkali barabanidan paxta bo'lakchasining otilib chiqishdagi harakat trayektoriyalarini ularning massalariga bog'liq o'zgarish olinib, paxta bo'lagini eng maqbul trayektoriyalariga ko'ra koordinatalari aniqlangan;

kichik kvadratik usuli yordamida qurilgan regression moddellar asosida regeneratordagi yo'naltirgichning og'ish burchagi va yo'naltirgichlar soni aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

paxtani tozalash samaradorligini oshirish imkonini beruvchi takomillashtirilgan regeneratordagi ishlab chiqilgan;

uzatuvchi cho'tkali baraban va paxta yo'naltirgichlarining ratsional qiymatlari aniqlangan;

tozalagichning ish unumdorligi bilan tozalash samaradorligi va paxtadagi qoldiq ifloslik o'rtasidagi bog'lanishlar olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi iflos aralashmalarga qo'shilgan paxtani regeneratsiyalash uskunalari nazariy tadqiqotlari natijasining amaliy sinovi, hisobiy ishlarda standartlashtirilgan usul va vositalardan foydalanilganligi, ularning mavjud va amal qilayotgan fundamental nazariyasiga mantiqan mos kelishi, olingan natijalarni real iqtisodiy samara bilan ishlab chiqarish korxonasiga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tavsiya etilgan paxta og'ma yo'naltirgich sirtidan tushib ketish vaqtini yo'naltirgich og'ish burchagiga bog'liqlik qonuniyatlarini olinishi, paxta bo'lagini yo'naltirgich sirtida ta'sirlashish zonasi maksimal bo'lishini hamda chiqish bo'yicha maksimal siljishi uchun paxta bo'lagini otilib chiqish burchagi qiymatlarining nazariy-amaliy asosida paxta regeneratori ishchi qismlarining ish tartiblari va ko'rsatkichlarini aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati, iflosliklarga aralashgan paxtani regeneratorda besh martagacha tozalash imkoniyatini beruvchi cho'tkali baraban va yo'naltirgich o'rnatilgan takomillashtirilgan paxta regeneratori ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Paxta chiqindilaridan tolali chigitlarni ajratib olish jarayonini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tavsiya etilayotgan paxta regenerorida iflos aralashmalar tarkibidagi paxtani besh marta tozalash imkonini beruvchi samaradorligi yuqori bo'lgan uskuna TST AGRO klaster tarkibidagi Mustaqilik paxta tozalash korxonasi (O'zbekiston respublikasi "O'zto'qimachilik sanoat" uyushmasining 2024-yil 28-avgustdagi 03/25-2288 sonli ma'lumotnomasi). Natijada tozalash samardorligi 13 %ga oshib, tolaning sinfini ko'tarilishiga va regeneratsiyalash samaradorligini 5,5 %ga oshishiga erishildi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta jurnalda maqolalar nashr etilgan va 1 ta foydali modelga patent olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 109 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi keltirilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning "**Adabiyotlar tahlili**" deb nomlangan birinchi bobida Paxtani iflos aralashmalardan tozalash texnologiyasi, Paxtani tozalashning mahalliy texnika va texnologiyalarini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili, paxtani tozalashning xorijiy texnika va texnologiyalari hamda ularni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar hamda RX regenerorining ishlash jarayonini tahlili keltirilgan.


Dissertatsiyaning "**Paxta regenerorining ajratilgan paxta bo'laklarini chiqish zonasi parametrlarini nazariy tadqiqotlari natijalari**" deb nomlangan ikkinchi bobida chiquvchi zonada paxta bo'lagini cho'tkali barabandan chiqishdagi harakat trayektoriyasini aniqlash, paxta bo'lagini og'ma yo'naltirgich sirtiga zarbalik ta'siri tahlili, paxta bo'lagini og'ma yo'naltirgich sirtida zarbadan keyingi harakati tahlili, tozalangan paxta bo'lakchalarini uskunadan chiqish bo'g'zi ko'rsatkichlari nazariy aniqlangan.

Tavsiya etilgan paxta regenerorida paxta bo'lakchalari ajratuvchi cho'tkali barabandan otilib chiqishida uning harakat trayektoriyasi qator omillarga bog'liq bo'lib, yo'naltirgichga urilish qiyaligiga ta'sir qiladi. Shuning uchun, otilib chiqqan paxta bo'lagini harakat trayektoriyasini aniqlash muhim hisoblanadi. 1-rasmda ushbu jarayon uchun hisob sxemasi keltirilgan.

Hisob sxemasiga asosan, otilib chiqadigan paxta bo‘lagiga, asosan, uning og‘irlik kuchi ta’sir qiladi. Lekin, cho‘tkadan ajralgan vaqtda inersiya kuchi ta’sir qiladi. Shuning uchun paxta bo‘lagini otilib chiqqanidagi harakat differensial tenglamalari quyidagicha bo‘ladi:

$$m_p \frac{d^2X}{dt^2} = 0; \quad m_p \frac{d^2Y}{dt^2} = -G \quad (1)$$

bu yerda, X, Y – koordinata o‘qlari; m_p – paxta bo‘lagini massasi; G – og‘irlik kuchi.



1-rasm. Cho‘tkali barabandan paxta bo‘lakchasining otilib chiqishini hisob sxemasi.

Paxta bo‘lagini otilib chiqishdagi boshlang‘ich tezlikning X va Y o‘qlariga proyeksiyalari:

$$V_0 = \sqrt{V_{0X}^2 + V_{0Y}^2}; \quad V_{0X} = \frac{dx_0}{dt} = V_0 \cos \alpha; \quad V_{0Y} = \frac{dy_0}{dt} = V_0 \sin \alpha \quad (2)$$

bu yerda, V_0 – otilib chiqishdagi tezligi; V_{0X}, V_{0Y} boshlang‘ich tezlikni X va Y koordinata o‘qlariga proyeksiyalari, α – otilib chiqish burchagi.

Boshlang‘ich tezlik vektori cho‘tka uchlari bo‘yicha aylanaga urinma bo‘ylab yo‘nalgan bo‘lib, uning qiymati:

$$V_0 = \omega_{ch} R_1 = \omega_{ch} (R_{ch} + h_{ch}) \quad (3)$$

bu yerda, ω_{ch}, R_{ch} – cho‘tkali baraban burchak tezligi va radiusi, h_{ch} – cho‘tka balandligi.

Olingan (1) differensial tenglamalar sistemasining yechimlarini ko‘rib chiqamiz.

Olingan (1) sistema birinchi tenglamasini integrallab quyidagi ifodalarni hosil qilamiz:

$$\frac{dX}{dt} = c_1; \quad X = c_1 t + c_2 \quad (4)$$

Boshlang‘ich nuqtada $x = 0$, $\frac{dx(0)}{dt} = V_0 \cos \alpha_0$ ekanligini e’tiborga olib, integral o‘zgarmasliklarini aniqlaymiz:

$$c_1 = V_0 \cos \alpha; \quad c_2 = 0$$

Natijada quyidagilarni hosil qilamiz:

$$X = V_0 t \cos \alpha; \quad \dot{X} = V_0 \cos \alpha \quad (5)$$

Xuddi shuningdek, (1) ikkinchi tenglamasidan quyidagi ifodalarni olamiz:

$$\frac{dY}{dt} = -gt + c_3; \quad Y = -\frac{gt^2}{2} + c_3 t + c_4 \quad (6)$$

Boshlang‘ich shartlardan foydalanib, quyidagilarni aniqlaymiz:

$$c_3 = V_0 \sin \alpha; \quad c_4 = 0 \quad (7)$$

Demak, (1) ning yechimi quyidagicha bo'ladi:

$$\frac{dY}{dt} = -gt + V_0 \sin \alpha; Y = -\frac{gt^2}{2} + V_0 t \sin \alpha \quad (8)$$

Ta'kidlash lozimki, cho'tkalaridan otilib chiqqan paxta bo'lagini egri va og'ma yo'naltirgich sharti bilan ta'sirlashguncha bo'lgan vaqtni aniqlash mumkin. Bunda zarba ta'sirida paxta bo'lagi yo'naltirgich o'rtasigacha siljiydi deb qaraymiz. Unda:

$$Y = \Delta + \frac{b}{2} \quad (9)$$

bu yerda, Δ – cho'tka va yo'naltirgich o'rtasidagi tirqish qiymati, $\Delta = 10^{-2}$ m; b – yo'naltirgich eni, $b = 2,5 \cdot 10^{-2}$ m.

Olingan (8) sistema ikkinchi tenglamasidan vaqtni aniqlaymiz:

$$t = \frac{1}{g} \left[V_0 \sin \alpha \pm \sqrt{V_0^2 \sin^2 \alpha + 2g \left(\Delta + \frac{b}{2} \right)} \right] \quad (10)$$

Hosil qilingan ifodani (5) tenglikka qo'yamiz:

$$X = V_0 \cos \alpha \left[\frac{V_0 \sin \alpha \pm \sqrt{V_0^2 \sin^2 \alpha + 2g \left(\Delta + \frac{b}{2} \right)}}{g} \right] \quad (11)$$


Ta'kidlash mumkinki, cho'tkali baraban aylanish chastotasini 945 ayl/min bo'lganligi sababli hamda R_{ch} qiymati 0,15 m bo'lganligi uchun paxta bo'lagini cho'tka uchidan otilib chiqish burchagini $\left(\frac{\pi}{6} \div \frac{\pi}{12} \right)$ oralig'ida ko'rib chiqildi.

O'tkazilgan sonli tajribalar asosida, cho'tkali baraban cho'tkalari uchidan otilib chiqayotgan paxta bo'laklarini harakat trayektoriyalari aniqlandi. Bunda paxta bo'lagini yo'naltirgich sirti bilan nuqtalarini boshlang'ich va o'rta qismi chegaralari trayektoriyalarini kesishish nuqtalari belgilandi. Bunda boshlang'ich qiymatlar quyidagicha olindi: $n_{ch} = 945$ ayl/min; $m_p = (0,15 \pm 0,38) \cdot 10^{-3}$ kg; $\Delta = 10^{-2}$ m; $b = 2,5 \cdot 10^{-2}$ m; $g = 9,81$ m/s²; $\alpha = \left(\frac{\pi}{6} \div \frac{\pi}{12} \right)$.

Bunda havoning qarshiligi inobatga olinmagan. Olingan natijalarga asoslanib, cho'tkadan otilib chiqayotgan paxta bo'lagini harakat trayektoriyalarini mos ravishda α , ω_r va m_r qiymatlariga bog'liqlik grafiklari qurildi. Bunda yo'naltirgichning boshlang'ich va o'rta qismi chegaralari egri chiziq qilib belgilangan. Jumladan 2-rasmda regenerator cho'tkalarini barabandan paxta bo'lagini otilib chiqishidagi harakat trayektoriyalarini chiqish burchagini o'zgarishiga bog'liqlik grafiklari keltirilgan.


Qurilgan grafiklar tahlili shuni ko'rsatadiki, paxta bo'lagini cho'tkadan otilib chiqish burchagi $\frac{\pi}{12}$ dan $\frac{\pi}{6}$ gacha ortganida uning harakat trayektoriyasi ko'rinishi x o'qi bo'ylab ortadi. Eng kichik otilib chiqish burchagi $\frac{\pi}{12}$ burchagida harakat trayektoriyasi cho'zilib, X o'qi bo'yicha yo'naltirgichga yetib borish chegarasi $3,23 \cdot 10^{-2}$ m ni tashkil etsa, Y o'qi bo'yicha $1,69 \cdot 10^{-2}$ m ni tashkil etadi.

Tavsiya etilgan konstruksiyada baraban cho'tkalaridan otilib chiqqan paxta bo'lagi yo'naltirgich sirtiga tushib zarbali tarzda ta'sirlashadi. Bunda zarba darajasi asosan paxta bo'lagi massasi, ta'sir tezligi va yo'naltirgich sirtiga bog'liq bo'ladi.



1, 2 – yo‘naltirgichning boshlang‘ich va o‘rta qismi chegaralari; 3 - $\alpha = \frac{\pi}{6}$; 4 - $\alpha = \frac{\pi}{7}$; 5 - $\alpha = \frac{\pi}{8}$; 6 - $\alpha = \frac{\pi}{9}$; 7 - $\alpha = \frac{\pi}{10}$; 8 - $\alpha = \frac{\pi}{11}$; 9 - $\alpha = \frac{\pi}{12}$.
2-rasm. Regeneratorning cho‘tkali barabanidan paxta bo‘lakchasining otilib chiqishdagi harakat trayektoriyalarini chiqish burchagini o‘zgarishiga bog‘liqlik grafiklari.

3-rasmda paxta bo‘lagini yo‘naltirgich og‘ma sirtiga paxta bo‘lagini zarbali ta’siri hisob sxemasi keltirilgan.



3-rasm. Paxta bo‘lakchasining yo‘naltirgich og‘ma sirtiga zarba ta’sirini hisob sxemasi.

Hisob sxemasiga ko‘ra paxta bo‘lagi yo‘naltirgich sirtiga \bar{V} tezlik bilan α burchak ostida uriladi. Yo‘naltirgich β burchagida og‘ma joylashgan. Paxta bo‘lagi zarbali kuch impulsi yo‘nalishda tezlik vektoriga \bar{V} mos ravishda ta’sir qiladi. Paxta bo‘lagini yetarli darajada dissipativ xususiyatini inobatga olinganda uni sirt bilan zarbali ta’siridan so‘ng deyarli sakramaydi, zarbadan so‘ng tezlik vektori \bar{V} o‘q X, yo‘nalishda bo‘ladi deb qaraymiz.

Cho‘tkadan otilib chiqqan paxta bo‘lagining harakatiga kinetik energiyani o‘zgarishi haqidagi teoremani qo‘llaymiz:

$$\frac{m_p (V_1^2 - V^2)}{2} = (V_1 + V) \frac{C}{2} \quad (13)$$

bu yerda, C – kuch impulsi; V, V_1 - boshlang‘ich va zarbadan keyingi paxta bo‘lagi tezliklari.

Ta’kidlash mumkinki, tezliklarni y_1 o‘qi bo‘ylab harakati zarbadan so‘ng nolga teng bo‘lgani uchun V_y va V_{y1} qiymatlari ham nolga teng deb qaraymiz.

Kelvin formulasidan foydalanib, quyidagini hosil qilamiz:


$$m_p V_1^2 - m_p V^2 = SV \cos \alpha + SV_1 \cos \alpha \quad (14)$$

Olingan (14) tenglamadan paxta bo‘lagini zarbadan keyingi tezligi V_1 ni aniqlash bo‘yicha kvadrat tenglamani yechimiga

$$V_1 = V + \frac{S}{m_p} (\cos\alpha - f\cos\alpha); \quad f = \frac{S_{y1}}{S_{x1}} \quad (15)$$

bu yerda, f – zarbadagi paxta bo‘lagini yo‘naltirgich sirti bilan ishqalanish koeffitsiyenti.

0050axta bo‘lagini og‘ma joylashgan yo‘naltirgich sirti bilan zarbali ta’siridan keyingi tezlik vektori modulini aniqlash ifodasi (15)da keltirilgan. 4-rasmda yo‘naltirgich sirtidagi paxta bo‘lagini zarbadan keyingi tezligini cho‘tkali baraban o‘qi bo‘yicha tashkil etuvchisini aniqlash sxemasi keltirilgan.



4-rasm. Yo‘naltirgich sirtidagi paxta bo‘lakchasini zarbadan keyingi tezligini cho‘tkali baraban o‘qi bo‘yicha tashkil etuvchisini hisoblash sxemasi.

Ushbu sxemaga asosan paxta bo‘lagini tezlik vektorini tashkil etuvchilarga ajratilganida

$$V_{1x} = V_1 \cos\beta; \quad V_{1y} = V_1 \sin\beta; \quad V_1 = \sqrt{V_{1x}^2 + V_{1y}^2} \quad (16)$$

(15) ifodalarni inobatga olib, tashkil etuvchilar tezlik qiymatlarini aniqlash formulalarini hosil qilamiz:

$$V_{1x} = \left[V + \frac{S}{m_p} (\cos\alpha - \varphi\cos\alpha) \right] \cdot \cos\beta; \quad V_{1y} = \left[V + \frac{S}{m_p} (\sin\alpha - \varphi\sin\alpha) \right] \cdot \sin\beta$$

$$S_{1y} = S\sin\alpha; \quad S_x = S\cos\alpha \quad (17)$$

Yuqoridagilardan \bar{V}_{1x} va \bar{V}_{1y} larni aniqlash ifodalari hosil qilindi:

$$V_{1x} = \left[V + \frac{S_x}{m_p} (1 - f) \right] \cdot \cos\beta; \quad V_{1y} = \left[V + \frac{S_y}{m_p} (1 - f) \right] \cdot \sin\beta \quad (18)$$


bu yerda, S_x , S_y – kuch impulslari o‘qlar bo‘yicha tashkil etuvchilari.

4-rasmdagi sxemaga asosan va (18) sistemaning ikkinchi tenglamasini inobatga olib, quyidagini aniqlaymiz:

$$t = \frac{b \operatorname{tg}\beta}{2 \left[V + \frac{S_y}{m_p} (1 - f) \right]} \quad (19)$$

Sonli yechimlarni kirish parametrlarning quyidagi qiymatlarida aniqlandi: $m_p = (0,15 \div 0,38) \cdot 10^{-3}$ kg; $f = (0,2 \div 0,35)$; $b = 5,0 \cdot 10^{-2}$ m; $\pi = 3,14$; $\beta = (50^\circ \div 70^\circ)$; $\omega_{ch} = (95 \div 102) \text{s}^{-1}$ kg; $R_{ch} = 1,5 \cdot 10^{-1}$ m.

Olingan (19) ifodada tavsiya etilgan paxta regeneratori konstruksiyasida paxta bo‘lagini yo‘naltirgich sirtidan chiqib ketish vaqtini parametrlariga bog‘liqlik grafiklari qurildi. Jumladan, 5-rasmda paxta bo‘lagini og‘ma yo‘naltirgich sirtidan chiqib ketish vaqtini yo‘naltirgich eniga bog‘liqlik grafiklari keltirilgan.



$$1 - m_p = 0,38 \cdot 10^{-3} \text{ kg};$$


$$2 - m_p = 0,29 \cdot 10^{-3} \text{ kg};$$

$$3 - m_p = 0,2 \cdot 10^{-3} \text{ kg};$$

$$4 - m_p = 0,14 \cdot 10^{-3} \text{ kg}$$

5-rasm. Paxta bo‘lagini og‘ma yo‘naltirgich sirtidan chiqib ketish vaqtini yo‘naltirgich eniga bog‘liqlik grafiklari.

Qurilgan grafiklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yo‘naltirgich eni 30 mm dan 90 mm gacha ortganida va paxta bo‘lagi massasi o‘rta hisobda $0,38 \cdot 10^{-3}$ kg bo‘lganida paxta bo‘lagini yo‘naltirgich sirtidan chiqib ketish grafigi chiziqli qonuniyatda ortib boradi va 0,0073 s dan 0,0261 s gacha ko‘payadi. Mos ravishda paxta bo‘laklari massasi o‘rtacha qiymati $0,14 \cdot 10^{-3}$ kg bo‘lganda esa, uning og‘ma yo‘naltirgich sirtidan chiqib ketish vaqti 0,0017 s dan 0,0055 s gacha chiziqli qonuniyatda ortib boradi. Chunki yo‘naltirgich eni ortsa, paxta uning sirtida shuncha ko‘p bo‘ladi. Ta‘kidlash lozimki, paxta bo‘lagi yo‘naltirgich sirtida qancha ko‘p bo‘lsa, uning cho‘tkali baraban o‘qi bo‘yicha siljishi ham ortadi, tozalash siklidagi soni kamayadi. Shuning uchun, yo‘naltirgich enini $(45 \div 65) \cdot 10^{-3}$ m oralig‘ida olish maqsadga muvofiqdir.



$$1 - f = 0,35;$$

$$2 - f = 0,3;$$


$$3 - f = 0,25;$$

$$4 - f = 0,2;$$

$$5 - f = 0,15$$

6-rasm. Tavsiya etilgan paxta og‘ma yo‘naltirgich sirtidan tushib ketish vaqtini yo‘naltirgich og‘ish burchagiga bog‘liqlik grafiklari.

Bog‘lanish grafiklarini tahliliga asosan shuni ta‘kidlash mumkinki, yo‘naltirgichning og‘ish burchagi 50° dan 75° gacha ortganida va paxta bo‘lagini yo‘naltirgich sirti bilan ishqalanish koeffitsiyenti 0,35 bo‘lganida, uning chiqib ketish vaqti $2,5 \cdot 10^{-2}$ c dan $0,53 \cdot 10^{-2}$ c gacha nochiziqli bog‘lanishda kamayib boradi. Mos ravishda $f = 0,15$ qiymati teng bo‘lganida paxta bo‘lagini og‘ma yo‘naltirgich sirtidan chiqib ketish vaqti $1,02 \cdot 10^{-2}$ c gacha nochiziqli bog‘lanishida kamayib boradi. Buning asosiy sababi, og‘ish burchagi ortsa, paxta bo‘lagi harakat tezligini gorizontol tashkil etuvchilarini ortishiga olib keladi, ya‘ni paxta bo‘lagi yo‘naltirgich sirtida ko‘proq ushlanib qoladi. Shuning uchun yo‘naltirgichning og‘ish burchagini $(64^{\circ} \div 70^{\circ})$ oralig‘ida olish tavsiya etiladi.



- 1 – $\omega_{ch} = 92s^{-1}$;
- 2 – $\omega_{ch} = 95s^{-1}$;
- 3 – $\omega_{ch} = 99s^{-1}$;
- 4 – $\omega_{ch} = 105s^{-1}$


7-rasm. Paxta regeneratori tavsiya etilgan konstruksiyasida paxta bo‘lagini og‘ma yo‘naltirgich sirtidan chiqib ketish vaqtini paxta bo‘lagi bilan yo‘naltirgich orasidagi ishqalanish koeffitsiyentini o‘zgarishiga bog‘liqlik grafiklari.

Olingan bog‘lanish grafiklari tahlil qilinganda, ishqalanish koeffitsiyenti 0,15 dan 0,4 gacha ortib borganda hamda cho‘tkali baraban burchak tezligi $92 s^{-1}$ bo‘lganida paxta bo‘lagini yo‘naltirgich sirtidan chiqib ketish vaqti $0,089 \cdot 10^{-1} s$ dan $0,24 \cdot 10^{-2} s$ gacha chiziqli qonuniyatda ko‘payib boradi.

Mos ravishda cho‘tkali baraban burchak tezligi $105 s^{-1}$ bo‘lganida paxta bo‘lagini og‘ma yo‘naltirgich sirtidan chiqib ketish vaqti $0,043 \cdot 10^{-2} s$ dan $0,126 \cdot 10^{-2} s$ gacha chiziqli bog‘lanishda ortib boradi. Chunki paxta bo‘lagi bilan yo‘naltirgich sirti orasidagi ishqalanish qancha katta bo‘lsa, paxta bo‘lagi uning sirtini shuncha ko‘p ushlanib qoladi. Tavsiya qiymatlari $f = (0,18 \div 0,25)$.

Dissertatsiyaning “**Takomillashtirilgan paxta regeneratori ishlab chiqish**” deb nomlangan uchinchi bobida tozalash texnologik jarayonlarining paxtani iflosliklar tarkibiga qo‘shilib ketishiga va tozalash samaradorligiga ta’siri, arrachali barabanlarda tozalash qaytaligini tozalash samaradorlikka ta’siri, yo‘naltirgichning og‘ish burchagi va sonini tozalash samaradorligiga ta’siri, regeneratorga uzatilayotgan paxta aralashgan iflosliklarning tuzilmaviy tarkibi hamda paxtani tuzilmaviy tarkibini texnologik jarayonlarda o‘zgarishi tadqiq etilgan.

Turli texnologik jarayonlarda paxta tarkibidagi iflos aralashmalarining ajralishi, iflosliklar tarkibiga paxta bo‘lakchalarini qo‘shilib ketishi va uni paxta regeneratorda tozalash samaradorligini aniqlash bo‘yicha tajribalar o‘tkazildi. Tajribalar turli texnologik jarayonlarga ega APK klaster tarkibidagi Bo‘ka, Real Agro cotton klaster tarkibidagi O‘zbekiston va TST AGRO klaster tarkibidagi Mustaqillik paxta tozalash korxonalarida o‘tkazildi.



8-rasm. UXK oqimlari texnologik jarayonlarining va RX regeneratrlarining tozalash samaradorliklari

Turli texnologik jarayonlarga ega O‘zbekiston, Bo‘ka va Mustaqilik paxta tozalash korxonalarida o‘tkazilgan tajribalar natijalardan ko‘rishimiz mumkinki (8-rasm), ushbu korxonalarining UXK liniyasining tozalash samaradorliklari I nav paxtada mos ravishda 80,61 %, 83,33 % va 90,95 % larni hamda III nav paxtada mos ravishda 83,12 %, 86,61 % va 93,13 % larni tashkil etdi.


Paxta regeneratrlarining tozalash samaradorliklari esa III nav paxtada mos ravishda 71,32 %, 74,76 % va 79,88 % larni hamda I nav paxtada mos ravishda 66,72 %, 69,25 % va 75,38 % larni tashkil etdi.

Regeneratrga qayta ishlash uchun yuboriladigan mahsulot miqdorlari ham turlicha bo‘lishiga qaramay ularning tozalash samaradorliklari xomashyoning miqdori ko‘p bo‘lishiga qaramay Mustaqillik paxta tozalash korxonasida eng yuqori ko‘rsatkichni I navda 75,38 % ni va III navda 79,88 % ni tashkil etdi.

Yuqorida keltirilgan tajriba natijalariga asosan, ishlab chiqarishda o‘tkaziladigan tajriba sinovlarini APK klaster tarkibidagi Mustaqillik paxta tozalash korxonasida o‘tkazishni maqsad qildik. Yirik iflos aralashmalardan tozalash seksiyalarining soni, ya’ni arrachali barabanlarda paxtani regeneratsiya jarayonida tozalash qaytaligini tozalash samaradorligiga ta’sirini ko‘rib chiqamiz. Buning uchun UXK tozalash liniyasining ifloslik shneklaridan chiqqan paxta aralashgan iflosliklardan olingan namunani arrachali baraban - kolosnik modulida 8 martagacha tozalab, iflos aralashmalarni ajralishini tadqiq etamiz.

Tajribalar 2 xil variantlarda olib borildi: 1-variantda UXK tozalagichning asosiy arrachali barabaniga ta’minlagich oraqali namuna uzatildi, ajralgan iflosliklar paxta bo‘lakchalari, mayda va yirik iflosliklarga ajratilib tarozida og‘irligi aniqlandi. Tozalanib chiqqan paxta esa shu tartibda 8 martagacha tozalagichdan o‘tkazildi. 2-variantda asosiy arrachali barabanda paxta tozalandi, iflosliklarga qo‘shilgan paxta regeneratsiyalovchi arrachali barabanda tozalanib, ajratuvchi uzatuvchi cho‘tkali baraban yordamida asosiy paxtaga qo‘shildi. Regeneratsiyalovchi barabanning ostidagi kolosniklar orqali ajralgan iflosliklar 0,01 gr aniqlikdagi elektron tarozida vazni aniqlandi. Shu tarzda 8 martagacha tozalash qaytarildi va natijalar qayd etib borildi. Tajribalar aniqligini oshirish uchun 10 marta takrorlanishda o‘tkazildi. Tajriba natijalarining o‘rtacha qiymatlari 9-10-rasmlarda keltirilgan.

Tajribalarda Sulton seleksiyasining III/3 navi mashina terimidagi, dastlabki namligi 9,6 % va ifloslik darajasi 14,8 % bo‘lgan paxtani UXK tozalash oqimida qayta ishlanganda ifloslik shneklari orqali chiqayotgan ifloslik miqdori 48,69%, shundan 20,72 % mayda ifloslik, 27,97% yirik iflosliklari bo‘lgan paxtada o‘tkazildi.




1-asosiy arrachali barabandan o‘tkazilganda; 2-asosiy arrachali va regeneratsiya barabanlaridan o‘tkazilganda.
9-rasm. Paxtani iflos aralashmalarga tushish miqdorini o‘zgarishiga tozalash qaytaligini ta’siri.

9-rasmdagi 1-grafikdan ko‘rinib turibdiki, 1-marta tozalashda paxta bo‘lakchalarini 62,4 gr iflosliklarga qo‘shilib ketayotgan bo‘lsa, qolgan

tozalashlarda, o'z navbatida 35,01; 28,48; 28,4; 27,87; 25,33; 22,14; 18,9 gr gacha paxta iflosliklarga qo'shilib ketdi. Asosiy arrachali barabanda tozalashga nisbatan regeneratsiya barabani qo'shilib, 1-marta tozalanganda 55,8 gr, 2-marta tozalanganda 30,17 gr, 3-marta tozalanganda 23,66 gr, 4-marta tozalanganda 23,6 gr, 5-marta tozalanganda 23,37 gr, 6-marta tozalanganda 22,11 gr, 7-marta tozalanganda 19,12 gr va 8-marta tozalanganda 16,9 gr paxta bo'lakchalarini iflosliklarga qo'shilib ketishi kamayishiga erishildi.


10-rasmda keltirilgan 1-grafikni tahlil qilsak, asosiy arrachali barabanni o'zida 8 marta tozalash qaytaligidan o'tkazilganda jami, 285,83 gr yirik ifloslik ajralishini, asosiy arrachali barabanni qo'shib regeneratsiya barabani ishlatilganda ushbu ko'rsatkich 295,0 gr ni tashkil etdi.



1-asosiy arrachali barabandan o'tkazilganda; 2-asosiy arrachali va regeneratsiya barabanlaridan o'tkazilganda.

10-rasm. Tozalash qaytaligini yirik iflos aralashmalar miqdorini o'zgarishiga ta'siri.

Paxtani iflosliklar tarkibidan tozalab regeneratsiya qilinishidan tashqari, ifloslik miqdorini kamaytirishga erishish mumkin ekan. Yirik iflosliklarni tozalash 5 marta tozalashdan so'ng o'zgarish kamayishi aniqlandi.



1-asosiy arrachali barabandan o'tkazilganda; 2-asosiy arrachali va regeneratsiya barabanlaridan o'tkazilganda.


11-rasm. Tozalash qaytaligini mayda iflos aralashmalar miqdorini o'zgarishiga ta'siri.

11-rasmda keltirilgan grafiklarni tahlil qiladigan bo'lsak, asosiy arrachali barabanni o'zida 8 marta tozalash qaytaligidan o'tkazilganda jami, 174,32 gr mayda ifloslik ajralishini, asosiy arrachali barabanga qo'shib regeneratsiya barabani ishlatilganda ushbu ko'rsatkich 176,46 gr ni tashkil etdi.


Olingan natijalardan xulosa qilishimiz mumkinki, UXK agregatining tozalash seksiyalaridan iflosliklarga qo'shilgan paxta 5 marta arrachali baraban - kolosnik modulida tozalangandan so'ng keyingi qayta tozalashlarda iflosliklar miqdorini kamayishi pasaymoqda. Ushbu pasayishni hisobga olib, taklif etilayotgan regeneratorda paxtani ko'p marotaba tozalash uchun arrachali barabanning yuqori qismiga cho'tkali baraban va uning ustidagi yoyga paxtani arrachali baraban o'qi bo'ylab siljishini ta'minlash uchun yo'naltirgichlar sonini 5 ta qilish maqsadga muvofiqdir.

Takomillashtirilgan RX paxta regeneratoriga taklif etilayotgan yo'naltirgichni og'ish burchagini tozalash samaradorligiga ta'siri bo'yicha amaliy tadqiqotlar o'tkazib, uning eng maqbul ko'rsatkichlarini aniqlaymiz.

Tadqiqotlarda yo'naltirgichning og'ish burchagi 55° ; 65° va 75° graduslarda o'rnatilib tajribalar olib borildi. Oldingi bo'limda tozalash qaytaligini 5 marta bo'lishi aniqlanganligini e'tiborga olib, yo'naltirgichlar sonini 4, 5 va 6 ta qilib tajribalar olib borildi. Regeneratorning ta'minlagichi ostida paxtani tiqilib qolishini bartaraf etish uchun birinchi yo'naltirgichning og'ish burchagi 55° qilib o'rnatildi. Bunda paxta bir marta arrali barabanda tozalanib, shaxta ostidan birinchi yo'naltirgich orqali suriladi va yangi tushib kelayotgan paxtaning harakatlanishiga to'sqinlik qilmaydi. Tajribada Sulton seleksiyasining I va III navlari, g'aramdagi namlik 9,6 va 11,5 %, iflosligi 6,8 va 14,1 % bo'lgan qo'l terimidagi xomashyodan foydalanildi. Har bir tajribalar 5 marta qayta o'tkazilib, o'rtacha qiymatlari qayd etildi. Yo'naltirgich sxemasi 12-rasmda va tajriba natijalari 13-rasmda keltirilgan.



12-rasm. Takomillashtirilgan RX uskunasi yo'naltirgichlarini joylashishi va o'lchamlari.



1 – yo'naltirgichlar soni 4 dona; 2 – yo'naltirgichlar soni 5 dona;
3 – yo'naltirgichlar soni 6 dona.

13-rasm. Takomillashtirilgan RX uskunasi tozalash samaradorligi

Tozalash jarayonida yo'naltirgichning og'ish burchagi kichrayib borgan sari cho'tkali barabandan uzatilib yo'naltirgich devorlariga urilib, o'z yo'nalishini o'zgartirayotgan iflosliklar aralashgan paxta qatlamining yo'naltirgich devorlari tomon zichlashib borishi natijasida tozalash samaradorligining pasayishi kuzatildi.

Tozalash samaradorlik yo'naltirgichning og'ish burchagi 75° da yuqori bo'lishiga qaramay chigitning mexanik shikastlanganligi yo'naltirgichning og'ish burchagi 65° dagiga nisbatan 0,46 %ga ko'pligini va tozalash samaradorliklari orasida

farq 0,6%ga ekanligini e'tiborga olib, yo'naltirgichning eng maqbul og'ish burchagining ko'rsatkichi etib 65^oni tanlab oldik.

Mustaqillik paxta tozalash korxonasiidagi UXK tozalash oqimi shnekklaridan, mavjud va tavsiya variantdagi RX regeneratrlaridan chiqayotgan paxtadan namunalar olinib, undagi aktiv va passiv iflosliklar miqdori aniqlandi.

Tadqiqotlarda Sul-ton va S6524 seleksiyalarining I nav 2 sinfi va III nav 3 sinfidan dastlabki namligi 12,3 % va iflosligi 13,1 % bo'lgan paxtadan foydalanildi. Tajribalar 5 marta qaytalikda o'tkazilib, o'rtacha natijalari qayd etildi. Tadqiqotlar natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tozalash oqimi va regeneratordan chiqayotgan iflosliklarning paxtaga ilashish turiga qarab aktiv va passiv iflosliklar miqdori

№	Paxta seleksiyasi	Aktiv iflosliklar miqdori, %			Passiv iflosliklar miqdori, %		
		UXK shnegi	Mavjud RX	Tavsiya variant-dagi RX	UXK shnegi	Mavjud RX	Tavsiya variant-dagi RX
I - nav 2 sinf paxta							
